# O‘ZBEKISTON MILLIY STANDARTI

## Turar joy va jamoat binolari ichki devorlari uchun beton hamda Temir-beton panellar

## Umumiy texnik shartlar

Rasmiy nashr

O‘zbekiston standartlar instituti

Toshkent

STANDARTLAR INSTITUTI #IVXMWPW34M - 21.08.2025 OOO "BINOKOR PRECAST TECHNOLOGIES"

## So‘z boshi

1. STQ 21 “Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi” Standartlashtirish bo‘yicha texnik qo‘mitasi tomonidan **ISHLAB CHIQILDI.**

2. O‘zbekiston standartlar instituti tomonidan 2025-yil 4-Avgustdagi 98/MSt-sonli buyrug‘i bilan **TASDIQLANDI.**

3. Ushbu standart ГОСТ 12504-2015 “Панели стеновые внутренние бетонные и железобетонные для жилых и общественных зданий. Общие технические условия” mintaqaviy standarti bilan **UYG‘UNLASHTIRILGAN**.

4. O‘z DSt 702-96 **O‘RNIGA ISHLAB CHIQILDI.**

*Ushbu milliy standart va unga bo‘lgan o‘zgartishlarni O‘zbekiston hududida amalga kiritish, qayta ko‘rib chiqish yoki bekor qilish haqidagi axborot Standartlashtirish bo‘yicha milliy organning rasmiy veb-saytlari va standartlarning yillik axborot ko‘rsatkichlarida chop etiladi.*

Ushbu standartni O‘zbekiston hududida rasmiy tarqatish mutlaq huquqi O‘zbekiston standartlar institutiga tegishli.



STANDARTLAR INSTITUTI #IVXMWPW34M - 21.08.2025 OOO "BINOKOR PRECAST TECHNOLOGIES"

**Mundarija**


| | | |
|---|---|---|
| 1 | Qo‘llanish doirasi | 1 |
| 2 | Standartlarga havolalar | 1 |
| 3 | Atamalar va ta’riflar | 3 |
| 4 | Tasniflash | 3 |
| 5 | Turlari, asosiy parametrlari va o’lchamlari | 3 |
| 6 | Texnik talablar | 6 |
| 7 | Xavfsizlik va atrof-muhitni muhofaza qilish talablari | 11 |
| 8 | Qabul qilish qoidalari | 12 |
| 9 | Nazorat va sinov usullari | 14 |
| 10 | Transportda tashish va saqlash | 15 |
| 11 | Foydalanish bo‘yicha ko‘rsatmalar | 15 |
| 12 | Ishlab chiqaruvchining kafolatlari | 15 |
| A ilova. Beton yoriqlari bo'lgan panellarga qo'yiladigan talablar va binolarda foydalanish bo'yicha ko'rsatmalar | | 16 |
| Bibliografiya | | 17 |
| Bibliografik ma’lumotlar | | 18 |




STANDARTLAR INSTITUTI #IVXMWPW34M - 21.08.2025 OOO "BINOKOR PRECAST TECHNOLOGIES"

# O‘ZBEKISTON MILLIY STANDARTI

**Turar joy va jamoat binolari ichki devorlari uchun beton hamda temir beton panellar**
Umumiy texnik shartlar

**Панели стеновые внутренние бетонные и железобетонные для жилых и общественных зданий**
Общие технические условия

**Concrete and reinforced concrete panels for interval walls of residential and civil buildings**
General specifications

Amalga kiritish sanasi 04.09.2025 yil

## 1 Qo‘llanish doirasi

Ushbu standart panellarning tasnifi, turlari, asosiy parametrlarini, ularga qo‘yiladigan umumiy texnik talablarni, ularni qabul qilishning umumiy qoidalarini, nazorat qilish va sinov usullarini, tamg’alash, tashish va saqlash qoidalarini belgilaydi.

Ushbu standart yengil beton (keramzit beton ham kiradi), zich silikat beton, avtoklavda qotirilgan g‘ovakli va og‘ir beton hamda turar joy va jamoat binolarining ichki yuk ko‘taruvchi devorlari va pardevorlariga (keyinchalik matn bo‘ylab – panellar deb yuritiladi) taalluqlidir.

Ushbu standartning talablari oldindan zo‘riqtirilgan panellar, maxsus maqsadli panellar (shamollatish, elektr panellari va h.k.), shuningdek nisbiy namligi 75 % dan yuqori bo‘lgan binolarning devorlari uchun mo‘ljallangan zich silikatli panellar va avtoklavda qotirilgan g‘ovakli betonlarga tavsiya etilmaydi.

Muayyan panel turlari uchun me’yoriy hujjatlar va ishchi hujjatlarni ishlab chiqishda ushbu standart talablari hisobga olinishi kerak.

## 2 Standartlarga havolalar

Ushbu standartda quyidagi standartlarga qilingan havolalardan foydalanildi:

| | |
|---|---|
| ГОСТ 12.1.005-88 | Система стандартов безопасности труда. Общие санитарно-гигиенические требования к воздуху рабочей зоны |
| ГОСТ 12.1.019-2017 | Система стандартов безопасности труда. Электробезопасность. Общие требования и номенклатура видов защиты |
| ГОСТ 12.1.030-81 | Система стандартов безопасности труда. Электробезопасность. Защитное заземление, зануление |
| ГОСТ 12.2.003-91 | Система стандартов безопасности труда. Оборудование производственное. Общие требования безопасности |
| ГОСТ 12.3.009-76 | Система стандартов безопасности труда. Работы погрузо-разгрузочные. Общие требования безопасности |
| ГОСТ 12.4.011-89 | Система стандартов безопасности труда. Средства защиты работающих. Общие требования и классификация |
| ГОСТ 12.4.021-75 | Система стандартов безопасности труда. Системы вентиляционные. Общие требования |
| ГОСТ 12.4.026-2015 | Система стандартов безопасности труда. Цвета сигнальные, знаки безопасности и разметка сигнальная. Назначение и правила применения. Общие технические требования и характеристики. Методы испытания |
| ГОСТ 12.4.222-2002 | Обувь специальная с верхом из кожи для защиты от вибрации. Технические условия |

*Rasmiy nashr*

STANDARTLAR INSTITUTI #IVXMWPW34M - 21.08.2025 OOO "BINOKOR PRECAST TECHNOLOGIES"

| | |
|---|---|
| ГОСТ Р 12.3.047-2012 | Система стандартов безопасности труда. Пожарная безопасность технологических процессов. Общие требования. Методы контроля |
| ГОСТ 17.2.3.02-2014 | Правила установления допустимых выбросов загрязняющих веществ, промышленными предприятиями |
| ГОСТ 17.4.3.05-86 | Охрана природы. Почвы. Требования к сточным водам и их осадками для орошения и удобрения |
| ГОСТ 380-2005 | Сталь углеродистая обыкновенного качества. Марки |
| ГОСТ 5802-2024 | Растворы строительные. Методы испытаний |
| ГОСТ 6727-80 | Проволока из низкоуглеродистой стали холоднотянутая для армирования железобетонных конструкций. Технические условия |
| ГОСТ 8736-2014 | Песок для строительных работ. Технические условия |
| ГОСТ 10060-2022 | Бетоны. Методы определения морозостойкости |
| ГОСТ 10180-2012 | Бетоны. Методы определения прочности по контрольным образцам |
| ГОСТ 10181-2014 | Смеси бетонные. Методы испытаний |
| ГОСТ 10922-2012 | Арматурные и закладные изделия, их сварные, вязаные и механические соединения для железобетонных конструкций. Общие технические условия |
| ГОСТ 12730.0-2020 | Бетоны. Общие требования к методам определения плотности, влажности, водопо- глощения. пористости и водонепроницаемости |
| ГОСТ 12730.1-2020 | Бетоны. Методы определения плотности |
| ГОСТ 12852.0-2020 | Бетон ячеистый. Общие требования к методам испытаний |
| ГОСТ 13015-2012 | Изделия бетонные и железобетонные для строительства. Общие технические требования. Правила приемки, маркировки, транспортирования и хранения |
| ГОСТ 14192-96 | Маркировка грузов |
| ГОСТ 17623-87 | Бетоны. Радиоизотопный метод определения средней плотности |
| ГОСТ 17624-2021 | Бетоны. Ультразвуковой метод определения прочности |
| ГОСТ 17625-83 | Конструкции и изделия железобетонные. Радиационный метод определения толщины защитного слоя бетона, размеров и расположения арматуры |
| ГОСТ 18105-2018 | Бетоны. Правила контроля и оценки прочности |
| ГОСТ 19281-2014 | Прокат повышенной прочности. Общие технические условия |
| ГОСТ 22690-2015 | Бетоны. Определение прочности механическими методами неразрушающего контроля |
| ГОСТ 22904-2023 | Конструкции железобетонные. Магнитный метод определения толщины защитного слоя бетона и расположения арматуры |
| ГОСТ 23009-2016 | Конструкции и изделия бетонные и железобетонные сборные. Условные обозначения (марки) |
| ГОСТ 23732-2011 | Вода для бетонов и строительных растворов. Технические условия |
| ГОСТ 24211-2018 | Добавки для бетонов и строительных растворов. Общие технические условия |
| ГОСТ 23279-2012 | Сетки арматурные сварные для железобетонных конструкций и изделий. Общие технические условия |
| ГОСТ 24297-2013 | Верификация закупленной продукции. Организация проведения и методы контроля |
| ГОСТ 25485-2019 | Бетоны ячеистые. Технические условия |

STANDARTLAR INSTITUTI #IVXMWPW34M - 21.08.2025 OOO "BINOKOR PRECAST TECHNOLOGIES"

| | |
|---|---|
| ГОСТ 26433.0-85 | Система обеспечения точности геометрических параметров в строительстве. Правила выполнения измерений. Общие положения |
| ГОСТ 28984-2011 | Модульная координация размеров в строительстве. Основные положения |
| ГОСТ 30108-94 | Материалы и изделия строительные. Определение удельной эффективной активности естественных радионуклидов |
| ГОСТ 31108-2020 | Цементы общестроительные. Технические условия |
| ГОСТ 31424-2010 | Материалы строительные нерудные из отсевов дробления плотных горных пород при производстве щебня. Технические условия |
| ГОСТ 34028-2016 | Прокат арматурный для железобетонных конструкций. Технические условия |
| O‘z DSt ISO 1920-7:2019 (ISO 1920-7:2004, IDT) | Бетонни зарарсиз синов синовидан ўтказиш - 7-қисм. Қаттиқлаштирилган бетон устунидан қаттиқ бўлмаган синовлар |

*Ushbu milliy standartdan foydalanishda Standartlashtirish bo‘yicha milliy organning rasmiy veb-saytlari va standartlarning yillik axborot ko‘rsatkichlariga muvofiq standartlarni O‘zbekiston Respublikasi hududida amal qilinishi tekshirilishi kerak. Agar havola qilingan standart almashtirilgan (o‘zgartirilgan) bo‘lsa, unda ushbu standartdan foydalanishda almashtirilgan (o‘zgartirilgan) standartga amal qilish kerak. Agarda havola qilinayotgan standart almashtirilmasdan bekor qilingan bo‘lsa, unga havola qilingan qoida ushbu havolaga taalluqli bo‘lmagan qismida qo‘llaniladi.*

## 3 Atamalar va ta’riflar

Ushbu milliy standartda quyidagi atamalar hamda ularning tegishli ta’riflari qo‘llanilgan:

3.1 panel: Zavodda ishlab chiqarilgan qurilish konstruksiyasining yassi elementi.

3.2 yuk ko‘taruvchi panel: O‘z og‘irligi bilan birgalikda unga tayanayotgan konstruksiyalarning vertikal yuklanishini va uskunalarning gorizontal yuklanishini qabul qilib barchasini poydevorga uzatuvchi panel.

3.3 yuk ko‘tarmaydigan panel: Bino konstruksiyalari tayanishiga mo‘ljallanmagan panel.

3.4 beton panel: Konstruktiv armatura bilan armaturalangan va ekspluatatsiya qilish bosqichidagi mustahkamligi faqat beton orqali ta’minlanadigan panel.

3.5 temir-beton panel: Ishchi armatura bilan armaturalangan va ekspluatatsiya qilish bosqichidagi mustahkamligi beton va armatura birgalikda ishlashi orqali ta’minlanadigan panel.

## 4 Tasniflash

Panellar ularni turlarini tavsiflovchi quyidagi asosiy belgilari bo‘yicha tasniflanadi:

binoda qo’llanilishi bo‘yicha:

-yer usti qavatlarining devor panellari;

-yerto‘la va sokol qavatlarining yoki kommunikatsiya o‘tkazish uchun yer osti yo‘laklarining panellari, chordoq panellari;

vertikal yuklanishlarni qabul qilishda ishtiroki bo‘yicha:

-yuk ko‘taruvchi;

-yuk ko‘tarmaydigan (pardevor panellari).

## 5 Turlari, asosiy parametrlari va o’lchamlari

5.1 Panellar 4 bo‘limda keltirilgan turli tasniflash guruhlariga taalluqli belgilar birikmalari bo‘yicha quyidagi turlarga bo‘linadi:

-yer usti qavatlari uchun:

ПСВ — yuk ko‘taruvchi;

ПГВ — yuk ko‘tarmaydigan;

-yerto‘la va sokol qavatlari yoki kommunikatsiya o‘tkazish uchun yer osti yo‘laklari uchun:

STANDARTLAR INSTITUTI #IVXMWPW34M - 21.08.2025 OOO "BINOKOR PRECAST TECHNOLOGIES"

ПСЦ — yuk ko‘taruvchi;
ПГЦ — yuk ko‘tarmaydigan;
- chordoq uchun:
ПСЧ — yuk ko‘taruvchi;
ПГЧ — yuk ko‘tarmaydigan.

5.2 Panellarning koordinatsion o‘lchamlari ajratuvchi elementlar yondosh bino konstruksiyalari bilan tutash kelgan joylari bo‘lmaganida (masalan, perpendikulyar yo‘nalishli devorlar yoki orayopmalar) 1- jadval bo‘yicha qabul qilinishi lozim.

Yirik panelli turar joy binolari uchun ko‘pincha koordinatsion uzunligi 12M ga karrali bo‘lgan panellarni qo‘llash tavsiya etiladi.

Agar panellar tutashadigan joyda bo‘luvchi elementlar bo‘lsa (masalan perpendikulyar yo‘nalishda devorlar yopma), panellarning koordinatsion uzunligi va balandligini mos keladigan o‘lchamni kichraytirish yo‘li bilan 1-jadvalda ko‘rsatilganidek, kattaligini ajratuvchi elementlarning koordinatsion o‘lchami aniqlash kerak bo‘ladi.

1-jadval

| **Panelning koordinatsion o‘lchamlari** | **Koordinatsion o‘lchamning modulga karraligi** | **Koordinatsion o‘lchamlarning qatori, mm** |
|---|---|---|
| Uzunligi | 12M | 1200, 2400, 3600. 4800, 6000, 7200 |
| | 6M | 1200, 1800, 2400, 3000, 3600, 4200, 4800, 5400, 6000, 6600, 7200 |
| | 15M | 1500, 3000, 4500, 6000, 7500 |
| Balandligi | 6M, 3M, M | 2800, 3000, 3300, 3600, 4200 |
| Qalinligi | M/5 | 60, 80, 100, 120, 140,160, 180, 200, 220,240, 260, 280, 300 |
| *Izoh:*<br>*1 Ushbu jadvalda ko‘rsatilgan panellarning koordinatsion balandliklari qatori, binolarning yer usti qavatlari uchun mo‘ljallangan bir qatorlik kesimli devor panellariga taaluqli. (balandligi qavatga teng bo‘lgan). Koordinatsion balandliklari ko‘rsatilgan modullardan biriga karrali.* | | |

5.3 Panellarning nominal uzunligi va balandligini ГОСТ 28984 bilan o‘rnatilgan konstruktiv o‘lchamlarni aniqlashning umumiy qoidalariga muvofiq o‘zaro va qo‘shni konstruksiyalarning vertikal va gorizontal tutashgan ulamali nominal o‘lchamlarining konfiguratsiyasi va nominal o‘lchamlariga bog‘liq bo‘lgan o‘lchamlarga kamaytirilgan (yoki ko‘paytirilgan) tegishli koordinatsion o‘lchamga teng qabul qilish kerak.

Panellarning nominal qalinligi 1-jadvalda ko‘rsatilgan panellarning koordinatsion qalinliklariga teng qabul qilinishi lozim. Uzunligining bir qismi binoning tashqi devori elementi bo‘lib hisoblanadigan g‘ovakli betondan ishlangan panellarning nominal qalinligini 50 mm ga teng bo‘lgan M/2 moduliga karrali qilib qabul qilishga ruhsat etiladi.

5.4 Panellarning nominal qalinligi statik hisoblash orqali yuk ko‘taruvchanlik xususiyatlarini, qattiqligini, yoriqga bardoshliligini, panellar o‘zaro tutashgan yerlarda montaj halqalarini va armatura o‘lamalarini ankerlash mustaxkamligini, panellarning o‘zaro va binoning boshqa elementlari bilan ulashishini, armaturagacha bo’lgan betonning kerakli himoya qatlamini inobatga olgan holda aniqlanadi.

Panellarning nominal qalinliklari quyidagilardan kam bo‘lmasligi kerak:
100 mm — yuk ko‘taruvchi panellar uchun;
60 mm — yuk ko‘tarmaydigan panellar uchun.

5.5 Bino loyihasida ko‘rsatib o‘tilgan hollarda panellar quyidagilarga ega bo‘lishi kerak:
-bo‘rtiqlar, o‘ymalar, tirqishlar, ariqchasimon o‘yiqlar, o‘rnatiladigan po‘lat qismlar, qo‘shimcha o‘rnatiladigan mahsulotlar va panellarni binoning qolgan konstruksiyalariga tayanishi

STANDARTLARNI ONLINE SOTISH VA YANGILASH UCHUN MO‘LJALLANGAN

uchun zinalar va bitishuvchi konstruksiyalar elementlari boshqa konstruktiv elementlarga tayanishi va biriktirilishi uchun konstruktiv elementlar;

-monolitlangandan so‘ng shponkali birikmani hosil qilish uchun, binoning yon tomonidagi va yondosh konstruktiv elementlarning panellarga tutashgan boshqa joylarda o‘ymalar va chuqurliklar;

-o‘rnatiladigan po‘lat detallar va binoning yondosh konstruksiyalari bilan ulash uchun bo‘rtib chiqqan armaturalar, sanitar-texnik va elektrotexnik detallarni qotirish uchun mahkamlash moslamalari (misol uchun xonadon uskunalari);

-isitish tizimining monolitlangan ustunlari;

-kanallar yoki monolit quvurlar, kalitlar va ulagichlar uchun qutilar, yashirin almashtiriladigan elektr simlari uchun mo‘ljallangan aloqa qutilari, shuningdek boshqa muhandislik kommunikatsiyalarini yotqizish uchun teshiklar;

-panellarda yashirin almashtiriladigan elektr simlarini joylashtirish uchun muhrlangan plastik naychalardan foydalanish kerak.

Elektr simlarni o‘rnatish uchun panellarda ariqchalar, uzgich va shtepselli ulagichlar uchun o’yiqchalar tayyorlashga yo‘l qo‘yiladi.

5.6 Panellar ГОСТ 23009 ga muvofiq belgilanishi kerak. Ushbu qiymatlarni belgilashda quyidagi qoidalarni hisobga olish kerak.

Panellarning markalari chiziqcha bilan ajratilgan harf-sonlar guruhidan iborat bo‘ladi.

Birinchi guruh panel turi belgilanishini va panelning nominal gabarit o‘lchamlarini o‘z ichiga oladi. Panelning uzunligi va balandligi detsimetrlarda (butun songacha teng qilib olish orqali), qalinligi santimetrlarda ko‘rsatiladi.

Ikkinchi guruhda betonning siqilishga bo‘lgan mustaxkamlik sinfi yoki loyihaviy mustahkamligini, beton marka va sinfining raqamli indeksi bilan belgilash orqali betonning turini ko‘rsatib o‘tiladi (Л-yengil beton, С-silikat beton, Я-g‘ovakli beton).

Uchinchi guruh harflar bilan ifodalangan va panellarni qo‘llashning alohida shartlarini va ularning chidamliligini aks ettiruvchi qo‘shimcha xususiyatlarini o‘z ichiga oladi.

S – zilzila ta’siri (binolarning zilzila hisobi 7 va undan ortiq balli). Keskin muhitning ta’siri sharoitida qo‘llaniladigan panellar uchun uchinchi guruh markalari panellar xarakteristikasini ifodalovchi, ekspluatatsiya – sharhida ularning uzoq turishini ta’minlovchi belgilarni o‘z ichiga oladi.

Unda beton panellarning namlanmaslik ko‘rsatkichlari harflarda ifodalangan:

N – o‘rtacha namlanmaslik, P – past namlanmaslik, O‘- o‘rta past namlanmaslik. Uchinchi guruh, agar kerak bo'lsa, panelning loyiha xususiyatlarining belgilarini ham o'z ichiga oladi (oxirgi zonalarning konfiguratsiyasi; teshiklar va teshiklarning mavjudligi, turi va joylashuvi; armatura chiqish joylari va o'rnatilgan qismlarning turi va joylashuvi: poydevorning notekis deformatsiyasidan kelib chiqadigan kuchlarni yutish uchun armatura mavjudligi, cho'kish, shishish, qattiq deformatsiyalar va boshqalar). Ushbu panel xususiyatlari arab raqamlari yoki kichik harflar yordamida shtampda ko'rsatilishi kerak.

5.7 Panellarning mazkur xususiyatlarini markada arab sonlari yoki kichik harflar bilan belgilash kerak.

ПСВ turidagi uzunligi 4720 mm, balandligi 2650 mm, qalinligi 160 mm bo‘lgan, og‘ir betondan tayyorlangan loyihaviy sinfi yoki siqilishga bo‘lgan mustahkamligi bo‘yicha markasi B15 bo‘lgan panelning shartli belgilanishiga misol:

*ПСВ 47.27.16-15*

ПСЦ turidagi uzunligi 2980 mm, balandligi 2170 mm, qalinligi 200 mm (namunaviy o‘lchami ПСЦ 30.22.20) bo‘lgan, yengil betondan tayyorlangan loyihaviy sinfi yoki siqilishga bo‘lgan mustahkamligi bo‘yicha markasi B10 bo‘lgan panelning shartli belgilanishiga misol:

*ПСЦ 30.22.20-10 Л-С*

ПГВ turidagi uzunligi 3580 mm balandligi 2970 mm qalinligi 240 mm (namunaviy o‘lchami ПГВ 33.30.24) bo‘lgan, g‘ovakli betondan tayyorlangan loyihaviy sinfi yoki siqilishga bo‘lgan mustahkamligi bo‘yicha markasi B5 bo‘lgan panelning shartli belgilanishiga misol:

STANDARTLAR INSTITUTI HUQUQIDAGI 10 08 2025 QO‘LLANMA BO‘YICHA TEXNOLOGIYA

*ПГВ 36.30.24-5Я-М*

*Izoh: Panellarning markalarini belgilanishi konstruksiyalarning ishchi chizmalariga muvofiq ularni qayta ko‘rishgacha qabul qilishga yo‘l qo‘yiladi.*

## 6 Texnik talablar

6.1 Panellar ushbu standart talablariga, amaldagi me’yoriy hujjatlarga va shaharsozlik norma va qoidalariga muvofiq ishlab chiqarilishi kerak.

6.2 Panellar loyihalashda o‘rnatilgan mustahkamlik talablariga (ishchi chizmalarga) javob berishi kerak. Bunda panellarni yuklash orqali sinash o‘tkazilmaydi.

### 6.3 Betonga qo‘yiladigan talablar

6.3.1 Betonning haqiqiy mustahkamligi (loyiha va jo‘natiladigan yoshida) loyiha hujjatlarida ko‘rsatilgan betonning standartlashtirilgan mustahkamligiga va betonning haqiqiy mustahkamligi bir xilligiga qarab, ГОСТ 18105 bo‘yicha belgilangan talabga mos kelishi kerak.

6.3.2 Istemolchiga panellarni jo‘natish beton jo‘natiladigan mustahkamligiga erishgandan so‘ng amalga oshiriladi (6.3.1 bandga qarang).

Panellar betonining jo‘natiladigan mustahkamligi beton sinfi va markasidan foizlarda quyidagilarni tashkil etishi kerak:

70 % — og‘ir beton uchun, ammo 9,8 MPa (100 kgf/cm$^2$) dan kam bo‘lmasligi lozim, yengil beton uchun B12,5 va undan ortiq bo‘lishi yoki M 150 va undan ortiq bo‘lishi lozim;

80 % — yengil beton uchun sinfi B7.5 va undan kam yoki M 100 marka va undan kam bo‘lishi lozim;

100 % — zich silikat beton uchun va avtoklavlangan g‘ovakli beton uchun.

6.3.3 Sovuq davr uchun ko‘rsatkichlarni oshirishga yo’l qo’yiladi ammo betonning siqilishga bo‘lgan mustahkamligi 90 % dan ortmasligi kerak. Yilning sovuq davri uchun og'ir va yengil betonning standart bo'shatish mustahkamligi qiymatini oshirishga ruhsat beriladi, lekin bosim kuchi bo'yicha beton sinfining yoki markasining 90% dan oshmasligi kerak.

Yuk ko‘taruvchi panellar va tashishda, montaj qilishda, saqlashda yuzaga keladigan yuklanishlarni o‘ziga qabul qiladigan og‘ir va yengil betondan yasalgan panellar uchun yilning har qanday davrida jo‘natish mustahkamligini 100 % gacha (betonning siqilishga bo‘lgan mustahkamligining o‘zi) oshirishga ruhsat etiladi.

Me’yorlanadigan jo’natish mustahkamligi qiymatini ГОСТ 13015 bo‘yicha aniq bir bino turi uchun loyihaviy hujjatlarga asosan qabul qilish lozim.

Jo‘natish mustahkamligi betonning siqilishga bo‘lgan sinfi yoki markasiga muvofiq bo‘lmagan taqdirda ularni yetkazib berish ishlab chiqaruvchi loyihaviy mustahkamligiga erishishni kafolatlagandagina amalga oshirsa bo‘ladi. Loyihaviy mustahkamligiga erishganligi ГОСТ 18105 ga muvofiq ajratib tayyorlangan va saqlangan namunalarni sinash orqali aniqlanadi.

6.3.4 Beton panellarning sovuqqa chidamliligi qurilish maydonining iqlim sharoitiga qarab amaldagi me’yoriy hujjatlarga muvofiq aniq qurilish loyihasining ishchi chizmalarida o‘rnatilgan sovuqqa chidamlilik darajasiga to‘g‘ri kelishi va buyurtma berishda ko‘rsatilgan bo‘lishi kerak.

Sovuqqa chidamliligi jihatidan g‘ovakli betonning markasi kamida F 25 bo‘lishi kerak.

Panellar uzunligining bir qismida binoning tashqi devorining elementi bo‘lgan hollarda, sovuqqa chidamliligi jihatidan panellarning beton markasi tashqi devor paneli bilan bir xil bo‘lishi kerak.

6.3.5 Panellardagi yengil beton zich tuzilishga ega bo‘lishi kerak. Zichlangan beton qorishmasidagi donalararo bo‘shliqlar hajmi ko‘pi bilan 3% bo‘lishi kerak.

6.3.6 Yengil va avtoklavlangan g‘ovakli betonning o‘rtacha zichligiga qo‘yiladigan talablar ГОСТ 13015 ga muvofiq aniqlanadi.

6.3.7 Panellar iste’molchiga yetkazib berilganda, silikat va g‘ovakli betonning og‘irligi bo‘yicha namlik tarkibi foizda quyidagilardan oshmasligi kerak:

8 silikat beton panellarda;

STANDARTLAR INSTITUTI #IVSLIKAT BETON PANELLARDA "BINOKOR PRECAST TECHNOLOGIES"

25 – qum ustida g‘ovakli beton panellarda;
30 — slanes kulida g‘ovakli beton panellarda;
35 — boshqa turdagi kulda g‘ovakli betondan yasalgan panellarda.

6.3.8 Betonni tayyorlash uchun ishlatiladigan materiallar belgilangan texnologik talablarga muvofiq, ushbu standartda belgilangan betonga qo‘yiladigan texnik talablarga rioya etilishini ta’minlashi kerak.

**6.4 Armatura mahsulotlari va o‘rnatiladigan detallarga qo‘yiladigan talablar**

6.4.1 Armatura mahsulotlari va o‘rnatiladigan detallarning shakli va o‘lchamlari hamda ularning panellardagi joylashuvi ishchi chizmalarda ko‘rsatilganlarga to‘g‘ri kelishi kerak.

6.4.2 Payvandlangan armatura mahsulotlari va po‘latdan yasalgan o‘rnatiladigan detallar ГОСТ 10922 talablariga rioya qilishi kerak, payvandlangan to‘rlar esa ГОСТ 23279 talablariga javob berishi kerak.

6.4.3 Armatura po‘lati markalari, shuningdek, o‘rnatiladigan detallar uchun uglerodli po‘lat markalari amaldagi me’yoriy hujjatlarga muvofiq panellarning ishchi chizmalarida ko‘rsatilgan va buyurtma vaqtida ko‘rsatilgan hujjatlarga muvofiq bo‘lishi kerak.

6.4.4 Panellarni mustahkamlash uchun milliy standart talablariga javob beradigan mustahkamlovchi po‘latdan foydalanish kerak:

- sterjenli armatura sinflari uchun:
- A240 (A-I), A300 (A-II), A400. A500 (A-III) — ГОСТ 34028;
- Ат500С (Ат-IIIС), Ат600 (Ат-IV), Ат600С (Ат-IVС) — ГОСТ 34028.
- davriy profilli armatura simi sinflari uchun:
- B500 (Bp-I) — ГОСТ 6727;
- Bp1200—Bp1500 (Bpп-I) — texnik talablar shartiga ko‘ra bo‘lishi lozim.

6.4.5 Ат-IIIс(Ат400С), Ат-IVс(Ат600С), BP-I sinfli po‘lat armaturalardan foydalanish mumkin bo‘lmasa yoki loyihalash me’yorlari yo‘l qo‘yilmagan taqdirda, ishchi armatura sifatida nay shaklidagi po‘lat armaturalar - A-III(A400), Ат-IIIс(Ат400С), Ат-IV(Ат600), Ат-IVС(Ат600С) va almashinadigan profili uzun sinfli armaturalar simlaridan BP-I, shuningdek nay ko‘rinishli armaturalar A-I(A240), A-II(A300) siflilar karkaslarning ko‘ndalang naylari uchun va to‘rlar hamda uzun armaturalar sifatida qo‘llaniladi, qachonki A-III(A400), Ат-IIIс(Ат400С), Ат-IV(Ат600), Ат-IVС(Ат600С), BP-I sinfli po‘lat armaturalarni qo‘llash joiz bo‘lmasa yoki loyiha me’yorlari bo‘yicha man etilsa, konstruktiv armatura uchun A-I(A240) va BP-I sinfli po‘lat qo‘llaniladi.

Panellarga quyma detal mahsuloti uchun ГОСТ 380 bo’yicha sifatli uglerodli po‘lat qo‘llaniladi yoki past to‘g‘rilangan po‘lat ГОСТ 19281 bo‘yicha.

6.4.6 Montaj ilgaklarini tayyorlash uchun silliq, qizdirib yumshatiladigan issiq prokatlangan armaturalar qo‘llanishi kerak, hamda sinflari A-I(A240), markalari Ст3сп2 va Ст3пс2 yoki 10ГТ ГОСТ 34028 markali A-IIс(A300С) sinfli davriy profildan foydalanish lozim.

6.4.7 Temir sinf ВСт3пс2 minus 40°С dan past haroratlarda ko‘tarish va o‘rnatish panellari uchun mo‘ljallangan o‘rnatish ilgaklari uchun foydalanish uchun ruhsat berilmaydi.

6.4.8 Nisbiy namligi 60% dan yuqori bo'lgan xonalarning devorlari uchun mo‘ljallangan silikat betondan yasalgan panellardagi va o’yiqli beton panellardagi armatura, shuningdek o'rnatish paytida betonlanmaydigan devorlar va ko'milgan qismlar, mustahkamlovchi relizlar va birlashtiruvchi mahsulotlarning ishchi chizmalarida ko'rsatilgan yuzalar (kompozit panellarda) korroziyaga qarshi qoplamaga ega bo'lishi kerak.

Qoplama betonni qayta qurishdan tozalangan mahsulotlarning sirtlariga qo‘llanilishi kerak.

Qoplamaning turi va texnik xususiyatlari amaldagi me’yoriy hujjatlarga va shaharsozlik norma va qoidalari talablariga muvofiq qurilish loyihasida o‘rnatilganlarga muvofiq bo‘lishi kerak.

6.5 Nisbiy namligi 60% dan yuqori bo‘lgan xonalarning devorlari uchun mo‘ljallangan avtoklavlangan g‘ovakli beton panellar bug‘ to‘suvchi gidrofobik qoplamaga ega bo‘lishi kerak.

Binoni loyihalashda bug‘ to‘suvchi qoplamaning turi va texnik talablari o‘rnatilishi kerak.

STANDARTLAR INSTITUTI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR DEPARTAMENTI TOMONIDAN TAYYORLANGAN

**6.6 Panellarni ishlab chiqarish aniqligiga qo’yiladigan talablar**

6.6.1 Panellarning haqiqiy o‘lchamlari ishchi chizmalarda keltirilgan nominal o‘lchamlar 2-jadvalda keltirilgan o‘lchamlardan oshmasligi kerak.

2-jadval

| Panelning nominal uzunligi | Chegaraviy og‘ishlar, mm | | | |
|---|---|---|---|---|
| | uzunligi bo‘yicha | balandligi bo‘yicha | qalinligi bo‘yicha panelning minimal qalinligida | |
| | | | 100 gacha | 100 dan ortiq |
| 2500 gacha | ±6 | ±5 | ±3 | ±5 |
| 2500 dan 4000 gacha | ±8 | ±5 | | |
| 4000 dan 8000 gacha | ±8 | ±6 | | |

6.6.2 Panel detallarining haqiqiy o‘lchamlari ishchi chizmalarda keltirilgan nominal o‘lchamlari quyidagilardan oshmasligi kerak:

±5 mm — eshik va oyna teshiklaridan, o‘yiq va bo‘rtib chiqishlardan;

+2 mm — taqsimlovchi qutilar uchun teshiklar, uzgichlar va shtepsel ulagichlari uchun o‘ymalar.

Betonlarning namunaviy holatdan og‘ishlari quyidagilardan oshmasligi kerak:

10 mm – teshiklar, kesmalar, o‘yiq va bo‘rtib chiqishlardan;

20 mm – o’yiq va tarmoqlovchi qutilar uchun tuynuklar, uzgich va ulagichlarning o‘rinlari.

Panellar ichidagi yashirin almashinadigan elektr simlari uchun kanallar, monolitlashtirilgan trubalar haqiqiy diametrlari namunaviy 0,9 dm dan kam bo‘lmasligi kerak.

Tashkilot bilan loyiha muallifi kelishuviga binoan ma’lum binoda ko‘rsatilgandan diametr, namunaviy 0,8 dan kam bo‘lmagan holda qabul qilinadi.

6.6.3 Har qanday bo‘limda panellarning old yuzasi va tayanch qirralarning profilining tekisligidan og‘ish quyidagilardan oshmasligi kerak:

- 1,6-3,0 m uzunlikdagi panel qismlarida;

-panelning butun uzunligi bo‘ylab:

- 2,5 m gacha- 3 mm;

- 2,5 dan 4,0 m gacha - 5 mm;

- 4,0 dan 8,0 m gacha - 8 mm.

6.6.4 Uch burchakdagi nuqtadan o‘tadigan shartli sirtni o‘lchashda yuza sirtlarini tekislilikdan og‘ishi quyidagilardan ko‘p bo‘lmasligi lozim:

- panel uzunligi 4 m gacha – 8 mm;

- panel uzunligi 4 m dan ortiq – 13 mm.

6.6.5 To‘g‘ri burchakli panellarninng yuza sirtlari diagonallar uzunligining har xilligi 3-jadvalda keltirilgandan ko‘p bo‘lmasligi lozim.

6.6.6 Eshik va oyna uchun ochilgan tirqishlarning diagonallari uzunligining har xilligi 10 mm dan ko‘p bo‘lmasligi kerak.

3-jadval

| Panelning nominal uzunligi, mm | Diagonallar uzunligining chegaraviy har xilligi |
|---|---|
| 2500 gacha | 10 |
| 2500 dan 4000 gacha | 13 |
| 4000 dan 8000 gacha | 16 |

6.6.7 Beton yuzasi bilan bir tekislikda joylashadigan va fiksator bo‘lib qo‘llanilmaydigan po‘lat o‘rnatiladigan detallarning nominal joylashishidan chetlashishi quyidagilardan ko‘p bo‘lmasligi lozim:

- panel tekisligida:

- 5 mm — shu tekislikda o‘rnatiladigan detallar elementlari uchun 100 mm gacha;

- 10 mm — shu tekislikda o‘rnatiladigan detallar elementlari uchun 100 mm dan ortiq;

- panel tekisligidan tashqarida 5 mm.

STANDARTLAR INSTITUTI "INNOVATSION QURILISH TEXNOLOGIYALARI BINOKORLIK PRECAST TECHNOLOGIES"

Panel montaj qilishda fiksator bo‘lib xizmat qiladigan bo‘lsa po‘lat o‘rnatiladigan detallarni nominal joylashishidan chetlanishi 3 mm dan oshmasligi kerak.

Bo‘rtib chiqqan armaturaning joylashishidan va nominal o‘lchamlaridan og’ishi ishchi chizmada keltirilganlardan ko‘p bo‘lmasligi lozim.

6.6.8 Panellarda armaturagacha bo‘lgan beton himoya qatlamining qalinligi ishchi chizmadagiga mos kelishi lozim.

Betonning himoya qatlami qalinligining ishchi armaturagacha bo'lgan haqiqiy og'ishlarining qiymatlari ГОСТ 13015 da ko'rsatilgan chegaralardan oshmasligi kerak va konstruktiv armaturaga — ГОСТ 13015 tomonidan ishchi armaturaga o'rnatilgan chegara qiymatlaridan ikki baravar ko'p bo'lmasligi kerak, lekin 20 mm dan oshmasligi kerak.

**6.7 Panel yuzalarining sifati va tashqi ko‘rinishiga qo‘yiladigan talablar**

6.7.1 Panel yuzalarining sifati ГОСТ 13015 da ko‘rsatilgan beton yuzaning quyidagi toifalariga javob berishi kerak (ishlab chiqarish jarayonida tugagan yuzalar bundan mustasno):

A4-yuzalari;

A7- yonlari, ekspluatatsiya vaqtida ko’zga tashlanmaydigan.

6.7.2 Ishlab chiqaruvchi va iste’molchi o‘rtasidagi kelishuvga binoan, belgilanganlar o‘rniga quyidagi toifadagi yuzalar o‘rnatilishi mumkin:

-A2 yoki A3-yuza, bo‘yash uchun tayyorlangan;

-A5-eritma qatlamiga ko‘ra keramika va boshqa plitkalar bilan qoplash uchun tayyorlangan old qismlar;

-A6-tugatish sifati uchun talablarga ega bo‘lmagan old qismlar.

6.7.3 Panelning tayanch zonasidagi A7 toifali yuzalar uchun 1 m uchun panelning qirralarining umumiy uzunligi 200 mm dan oshmasligi kerak. Muayyan bino uchun loyiha muallifi bo‘lgan tashkilot bilan kelishilgan holda, beton qirralarning maksimal umumiy uzunligini tayanch zonasidagi chekkaning 1 m ga oshirishga yo’l qo’yiladi.

